

**IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASHDA INDIVIDUAL  
YONDASHUV TEHNOLOGIYALARINI SHAKLLANTIRISH  
( FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI TAJRIBASIDA).**

**Sattarova Muhabbat Alijanovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Xalqaro Nordik universtiteti magistranti.

E-mail [sattarovamuhabbat361@gmail.com](mailto:sattarovamuhabbat361@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 14.01.2025*

*Revised: 15.01.2025*

*Accepted: 16.01.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Individual ta'lism, iqtidorli talabalar, Work and Travel dasturi, metodlar, tushuntirish, fin tajribasi, iqtidorni namoyon etish, me'yoriy hujjatlar, iqtidorli talabalar bilan ishslash mehanizmi.*



*Maqolada individual ta'lism tehnologiyasi orqali iqtidorli talabalarini aniqlashning zamонавиј модели (finlandiya ta'lism tizimi tajribasi), o'ziga hos metodlar, vositalar, shakllar, yordamida ularni tadqiqot ishlariga qiziqtirish, rivojlantirish, tashkil etish usullari yoritilgan. Shuningdek maqolada ilmiy pedagogik savodhonlik, iqtidorli talabalarini iqtidorni namoyon etish usullari haqida so'z yuritiladi.*

**KIRISH.** Bugungi kunda jadal suratda rivojlanib kelayotgan dunyoda iqtidorli talabalarini aniqlash ularni qisqa muddatda ma'lumotlar bilan qurollantirish tadqiqot ishlariga qiziqtirish, zarur shart shart sharoitlarni yaratishni taqazo etmoqda.

Yosh avlodni yuqori darajada bilimga ega qilish Iqtidorli talababar bilan ishslash ularni aniqlash davlatimiz e'tiborida bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Va bunga oid bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonida Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash hamda jahon miqyosida Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan buyuk ajoddlarga munosib avlodni tarbiyalash ta'lim tizimiga keng tadbiq qilinmoqda[1]

Va yana ma'lumki Fin ta'limi jahon tajribasizdan o'tkan eng mukammal ta'lim tizimlaridan biri sifatida ko'rildi.

Bulardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28 fevraldag'i PF-27-sonli Farmonida "Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish samaradorligini oshirish va professoro'qituvchilarни xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborish" [2].

Innovatsiya asri hisoblangan XXI – asr ham bizdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni taqozo qilmoqda.

Eng ommalashgan ta'lim turlaridan biri bu - individual ta'lim hisoblanadi.

Bu turdag'i ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari orqasida muhim, shuningdek, globallashuv sharoitida dolzarblik kasb etadi.

Bu turdag'i ta'lim turi iqtidorli talabalarni ichki imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga yordam beradi va juda samarali ta'lim turlaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar.**

Individual ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etishning shakli va zamonaviy modeli hisoblanib, undan maqsadli foydalanish, davlat va jamiyat istiqboliga hizmat qiladigan mutaxassislarni tayyorlashda o'z ustuvorligiga ega. Ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan individual ta'limni joriy etishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Talabaning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishi ta'minlanadi;

Talabaning ichki imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi;

Talabaning alohida ta'lim shakli tufayli zehni o'tkirlashadi;

Talabaning tadqiqot ishlariga qiziqish imkoniyatlari ko'chayadi;

Talabaning bilim olish imkoniyatlari kengayadi;

Talaba ortiqch ruhiy va aqliy zo'riqishdan qutuladi;

Proffessor o'qituvchilardan bilim maslahat olish imkoniyati kengayadi;

Horijiy hamkorlik dasturlarida qatnashishga bo'lgan imkoniyatlari oshadi;

Eng asosiysi o'z o'zini o'rganish ichki imkoniyat qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z faoliyatiga tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Demak, talabaning fikrlash va taraqqiyot strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. U o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini ko'zda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatni talaba shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhiyaratishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga hizmat qiladi. Bu turdag'i ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashish, uning shaxsini hurmat qilish va ishonch bildirishni taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruratini ifodalaydi. [3,4]. Kareliya UAS xalqaro tadqiqotlar, ishlanmalar va innovatsiyalar (RDI) bo'yicha kuchli xalqaro tarmoqlar, vakolatlar va ma'lumotlarga ega. Innovatsion ekotizimlardagi RDI hamkorligi va uning natijalari uzoq muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatadi va mintaqaviy rivojlanishga izchil xizmat qiladi.

Kareliya INVEST Erasmus+ Yevropa Universitetlar Alyansi konsorsiumining a'zosi hisoblanadi. INVEST inklyuziv jamiyat va bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan xalqaro sinergiya va mukammallik orqali ta'lim, kadrlar tayyorlash, tadqiqot va innovatsiyalarda yuqori standartlarga intiladigan innovatsion va pastdan yuqoriga yo'naltirilgan universitetlar tarmog'i idir.

Xalqarolashtirish kelajak uchun. Bu talabalar va xodimlarning kasbiy va transversal vakolatlarini mustahkamlaydi va daraja va uzlusiz ta'lim, RDI va xizmatlarning xalqaro jihatlarini ta'minlaydi.

**Natija.** Xalqaro Nordik universiteti - 2022-o'quv yilida Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining 10-yig'ilishidagi kelishuv asosida tashkil topgan. Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan xususiy oliygomdir. 2022-yil 8-avgust kuni universitet № 034528 raqamli lisenziyasi asosida o'z faoliyatini boshlab yubordi. Xalqaro Nordik Universiteti finlandiya davlati ta'lim tizimi asosida ta'lim beriladigan hususiy oliygohlardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Pedagogik fanlarni o'qitishda individual ta'limni shakllantirish tuzilmasi.

Talabalar yakka, juft holda kichik guruhlarda ishlaydi, ular o'rtasida do'stona muloqot, o'zaro yordam, hamkorlik vujudga keladi, nutqi rivojlantiriladi. Har bir talaba o'z qiziqishi, iqtidoriga asoslanib bilimini oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab yangi bilimlarni o'zlashtiradi. O'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazorati amalga oshiriladi. Bu esa talabaning bo'sh vaqtini samarali, mazmunli va foydali o'tkazishni ta'minlaydi. Pedagogik munosabatlар o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy - amaliy konferentsiyalarda, innovatsion loyihalarda ozlarining maqola va ishlanmalari bilan faol ishtirok etmoqdalar.

Talabalar qiziqishi va o'z tanlovi asosida professor-o'qituvchilarga biriktirildi.

Iqtidorli talabalardan biri, Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi Asilabonu Hamidovaga Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi tayinlandi.

Asilabonu Hamidova maktabni oltin medal bilan tamomlagan. Universitetda ta'lim va ish faoliyatini a'llo darajada olib bormoqda. Coursera, Udemy platformalarida xalqaro kurslarni ijobjiy yakunlab, ilmini boyitib boryapti. Iqtisodiyot fanlari doktori Xasan Sabirov ilmiy

rahbarligida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Universitet fin va o‘zbek hamkorligining ilk yirik natijasi, Finlyandiya oliv ta’lim tizimining O‘zbekistondagi yagona aksi, Toshkentdagи birinchi ta’lim klasteridir.

### **Muhokama.**

Xalqaro Nordik universtitetida iqtidorli talabalar ta’lim olishlari uchun barcha shart sharoitlar mavjud.

Universitet 12 tabakalavriat yo‘nalishi (kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi) va 6 ta magistratura mutaxassisligi va 4 ta PhD ixtisosligi bo‘yicha zamonaviy mutaxassislar tayyorlamoqda.

Xalqaro Nordik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori asosida ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash tuzildi. Talabalarga magistraturani tugatgach, universitetda doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutiga kirib, ilmiy tadqiqotlarni davom ettirishlari uchun imkoniyat yaratildi.

XNUda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining № 057211 raqamli Guvohnomasi asosida "Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnalini nashr etilmoqda. Jurnalda o‘zbek, rus, ingliz va fin tilida ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Akademik faoliyatini rivojlantirish uchun o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yozmoqchi bo‘lgan talabalar uchun "Nordic" nashriyoti ochildi. Bu borada universitet bilan hamkorlik qilinsa, nashriyot va bosmaxonalar qidirishga hojat bo‘lmaydi.

Maktabda o‘qib turib, XNUda ham o‘qish mumkin. Universitet qoshida o‘qishga kirishda qator imkoniyatlarni taqdim etuvchi "Foundation maktabi" faoliyat ko‘rsatmoqda. 9, 10 va 11-sinf o‘quvchilari Xalqaro Nordik universitetining Foundation dasturini muvaffaqiyatli bitirib, 2-kursdan o‘qishni davom ettirishlari mumkin.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari kompaniyalari bilan o‘rnatilgan shartnomalarga muvofiq, universitet talabalari manzilli ravishda "Work and Travel" dasturi orqali uch oygacha xorijga yuborilmoqda. Xalqaro Nordik Universitetining "Work and Travel" dasturi sizga ta’lim va mehnatni uyg‘unlashtirish imkoniyatini beradi. Finlandiya kabi ilg‘or mamlakatlarda o‘qish va ishslash orqali talabalarimiz amaliy tajriba to‘plashlari va kasbiy ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, bu dastur Yevropaning turli burchaklarini kashf etish imkonini ham taqdim etadi. "Work and Travel" dasturimiz talabalarimizga nafaqat kasb-hunar, balki dunyogarashlarini ham boyitish imkonini beradi.

qtidorli talabalarni aniqlash va ularga individual yondashuv texnologiyalarini shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Finlyandiya ta'lim tizimi bu borada o'zining innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Finlyandiyada ta'limning asosiy tamoyillaridan biri tenglikdir. Barcha o'quvchilarga bir xil sharoit va ta'lim imkoniyatlari yaratiladi, bu esa iqtidorli talabalarni aniqlashda adolatli mezonlarni ta'minlaydi. Shuningdek, bepul ta'lim va o'quv jihozlari bilan ta'minlash ham o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi.

Individuallik tamoyili har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi. O'qituvchilar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab alohida yondashuvni qo'llaydilar, bu esa iqtidorli talabalarni erta aniqlash va ularning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Amaliylik tamoyili o'quvchilarni hayotga tayyorlashga qaratilgan. Darslarda amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor beriladi, bu esa o'quvchilarning qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirishga imkon yaratadi.

Finlyandiya ta'lim tizimida o'qituvchilarning yuqori malakasi va mustaqilligi ham muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart va ular o'quv jarayonini mustaqil tashkil etish huquqiga ega. Bu esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va iqtidorli talabalarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, Finlyandiyada ta'lim jarayonida ishonch madaniyati shakllangan bo'lib, bu o'qituvchilarga o'z pedagogik yondashuvlarini mustaqil ravishda qo'llash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirishda samarali natijalarni ta'minlayd

### Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, bugun kelajakning yangi ta'lim tizimini yaratuvchi mamlakatlar ertangi kunda dunyo iqtisodiyotining yetakchilariga aylanadilar. Bu borada shaxsning barkamol rivojlanshini ta'minlashda, uning ham kasbiy ham ma'naviy jihatdan rivojlanib, raqobatbardosh kadr bo'lishida, iqtidorli talabalarni aniqlashda, xalqaro darajadagi o'qituvchi tayyorlashda individual ta'lim eng zamonaviy va samarali usullardan biri sanaladi.

Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga individual yondashuvni amalga oshirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'naliшlaridan biridir. Finlandiya ta'lim tizimining ilg'or tajribasi bu borada o'rganish va qo'llashga arziysi. Mazkur tajribada har bir o'quvchining qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv ustuvor o'rinn tutadi.

Finlandiya ta’lim tizimi shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhitning ahamiyatini ta’kidlaydi va bu jarayonda bolalar uchun stress darajasini minimal darajaga tushirishga intiladi. Bunda o‘quv jarayonini qiziqarli va ijodiy qilib tashkil qilish, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlarini erta aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Individual yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchilar va pedagogik jamoaning uzviy hamkorligi, shuningdek, texnologik vositalarning integratsiyasi katta ahamiyatga ega.

Ya’ni , Finlandiya ta’lim tizimi tajribasi bizga iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga individual yondashuv texnologiyalarini shakllantirishda samarali amaliyotlarni taqdim etadi. Ushbu tajribani o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, kelajak avlodni yanada ijodkor, bilimdon va muvaffaqiyatli shaxslar qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28 fevraldagagi PF-27-sonli Farmoni.
- 3.Rakhimov A.K. Improving the methodology for developing students’ natural and scientific worldview (on the example of teaching the subject of “The doctrine of evolution”). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 02, 2020.
4. Raximov.A.K., Rasulova.O.O., Matyaqubov.A.Q., Ta’lim-tarbiya tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining roli //Муғалим ҳам узликсиз билимленидириў. Нукус:4/2 2021 жыл.